

O‘TKIR HOSHIMOV ASARLARIDA FONETIK PRAGMALINGVISTIKANING QO‘LLANILISHI VA UNING LINGVISTIK TADQIQI

Ilmiy rahbar: **Usmonova Huriniso**
f.f.doktori professor

Xodjayeva Munisxon
Namangan Davlat Universiteti tayanch
doktorantura erkin tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada pragmatika, pragmalingvistikaning tilshunoslikka kirib kelishi, o‘zbek tilshunosligida pragmalingvistikaning o‘rganilishi, O‘tkir Hoshimov asarlarida pragmalingvistikaning qo‘llanilishi, fonetik pragmalingvistikaning ahamiyati va xususiyatlari aniqlangan

Kalit so‘zlar: Nutqiy jarayon, kommunikativ niyat, Pragmatika, pragmalingvistika, fonetik pragmalingvistika

Annotation: In this article, the study of pragmatics, pragmalinguistics in linguistics, the role of pragmalinguistics in Uzbek linguistics, the use of pragmalinguistics in the works of O‘tkir Hoshimov, the importance and characteristics of phonetic pragmalinguistics are determined

Keys word: communication, Pragmatic, pragmalinguistic, phonetic pragmalinguistics

Аннотация: В этой статье освещено изучение прагматики и прагмалингвистики в языкознании, место прагмалингвистики в узбекской языкознании, употребление прагмалингвистики в произведениях У. Хошимова, значения и особенности фонетической прагмалингвистики

Ключевое слова: Прагматика, прагмалингвистики, фонетик прагмалингвистики

Yevropa tilshunosligiga 1960-1970-yillarda pragmalinvistika atamasi kirib kela boshladi. Bu tilshunoslikning hali o‘rganilmagan sohalaridan biri bo‘lib, unga ko‘ra til faqat kommunikativ vazifa bajarmaydi. Kommunikatsiya bilan pragmatik lingvistika bir-birini to‘ldirsa-da boshqa-boshqa yo‘nalish ekanligi haqida turli qarashlar paydo bo‘la boshladi.” Pragmalingvistika tilshunoslik fanining nazariy va amaliy

tarmog'idir. Nutqiy jarayon, Nutq ishtirokchilariga xos kommunikativ niyat, nutqiy vaziyatning ta'siri bilan aloqador masalalarni o'rganadi".[1]¹

Nutqiy faoliyat bilan bog'liq uning ichki va tashqi ruhiy olamini nutqdagi oshkora va yashirin ifodasini tadqiq etish, ularni tahlil qilish, insonning o'z nutqi orqali o'zligini namoyon etish kabi masalalarni o'rganish bugungi milliy his, milliy mafkura va milliy g'oya tushunchalarining mohiyatini ochishda muhim o'rin tutadi. Shunga ko'ra har qanday shaxsning olamdagi ijtimoiy faoliyatini o'zida umumlashtirgan "harakat", dagi "jonli" nutqini tadqiq etish faqat sof tilshunoslik fani uchungina emas, balki psixolingvistika, sotsiolingvistika, lingvistik geografiya, kommunikativ tilshunoslik, neyrolingvistika kabi umumtarmoqlar uchun ham muhim ahamiyatga egadir. Inson nutqini o'rganish orqali iz uni ma'naviy olamini kashf eta olamiz. Pragmatika grekcha "pragmos" so'zidan olingan bo'lib, "ish", "harakat" ma'nolarini ifoda etadi. Pragmatika tilning belgilardan iborat ekanligini o'rganuvchi soha semiotika bilan ham uzviy bog'liq bo'lgan fandır. Pragmatika termini dastlab XX asrning 30-yillarida CH.I.Morris tomonidan fanga olib kirilgan. Unga ko'ra CH.I.Morris semiotikani semantika, sintaktika, pragmatikaga ajratadi.

O'zbek tilshunosligida M.Irisqulov, Sh.Safarov kabi tilshunoslarimiz pragmalingvistika sohasiga o'z ilmiy salohiyatlari bilan turli izlanishlar olib borishgan. Pragmalingvistikaning fonetik pragmalingvistika bo'limi o'zbek tilshunosligida keng tarqalgan. O'zbek adabiyoti namoyondalaridan biri yozuvchi O'tkir Hoshimovning asralaridagi fonetik pragmalingvistikaning ayrim ko'rinishlariga misollar keltiramiz."Daftar hoshiyasidagi bitiklar" asaridan:

Mahallamizda munkillab qiolgan chol bo'lardi. Ko'klam pallas choyxonaning kuchala chiqargan tol tagidagi so'risida maxsi-kalishli oyog'ini cho'zib, choy ichib o'tirar, biz –maktab bolalari o'qishdan qaytayotib salom bersak, qiroat bilan alik olar edi:

-Vo alaykum assalo-o-om! Mullo bo'ling. Umringizdan Baraka toping! Sizning yuz yoshga chiqqaningizni ko'rib o'zim quvonib yuray, bo'tam!

Ushbu matnda munkillab qolgan cholning darsdan qaytayotgan o'quvchilarning oddiy salomiga alik olgandagi holatidan "Vo alaykum assalo-o-om!" salomga nisbatan hurmati, e'tiborini hamda o'quvchilarning salomidan o'zi uchun ham bolalar uchun ham hayrli maqsadni ko'zlagani, umidi aks etgan. Shu sababdanmi yozuvchi ushbu matnga "Duo qilishni biladigan odam" deb nomlagani bejizga emas. Demak, bir tovushning bir necha marta takrorlanib kelishi tovush xoh unli bo'lsin xoh undosh bo'lsin ikki yoki undan ko'p marotaba kelishi fonetik pragmalingvistikaning ko'rinishi hisoblanadi.

¹ M.Hakimov. Pragmalingvistika asoslari

Yana bir matndan parchada esa fonetik pragmalingsvistikaning yana bir ko‘rinishini guvohi bo‘lamiz:

Eng toza tuyg‘u nima?

Birinchi maoshingizni keltirib berib,otangizning duosini olganingizmi?

Birinchi marta sovg‘a ko‘tarib kelganingizda onangizning ko‘zida qalqigan yoshmi?

Birinchi bo‘sam?

To‘y kechasidagi hayajonlarmi?

Nogahon ko‘z yumgan onangizning qabrini silab yig‘laganingizmi?

To‘ng‘ich farzandingizni ilk bor maktabga yetaklab borganingizmi?

Hammasi...hammasi pokiza tuyg‘ular ...Ammo...

Bola emizib o‘tirgan ayolga zimdan razm soling.Go‘dagiga ko‘ksini tutib termulib turgan onaning ko‘zlariga sinchikla-a-ab tikiling...

Eng oliy tuyg‘u nimaligini shunda ko‘rasiz!

Ushbu matndagi mazmun ona mehri ,mehr instikti haqida ketayapti.E‘tibor bersak matnnin eng kuliminatsion nuqtasi uchun yozuvchi fonetik pragmalingsvistikadan unumli foydalanmoqda.Bu bilan yozuvchi matnning mohiyatini yanada ta’sirliroq chiqishiga pragmalingsvistika orqali erishgan.Matnning nomiga ahamiyat qaratsak “Eng oliy tuyg‘u” deb nomlanadi.Bu esa matnning mazmuni “ona mehri” ning eng oliy tuyg‘u ekanligini ,ona mehri ga hech qaysi tuyg‘ular tenglasha olmasligini yozuvchining mahorati hamda pragmalingsvistikaning fonetik ko‘rinishi orqali anglashimiz mumkin.

O‘tkir Hoshimov qalamiga mansub yana bir matnda fonetik pragmalingsvistikaning yana bir ko‘rinishini guvohi bo‘lamiz :

U xo‘-o‘-o‘p o‘qimishli, xo‘-o‘-o‘p bilimdon, xo‘-o‘-o‘p olim odam.Faqat bitta “juz‘iy”kamchiligi bor:chin dildan kulolmaydi,chin dildan yig‘lolmaydi...

Ushbu matndagi **xo‘-o‘-o‘p** so‘zi orqali o‘qimishliligi,bilimdonligi,olimligining soxta ekanligini aks etish uchun,yozuvchi nazarda tutayotgan olimning **xo‘-o‘-o‘p** olim bo‘lsada chin dildan kulolmasligi yoki yig‘lolmasligi ,ya’ni xissiz inson ekanligi **xo‘-o‘-o‘p** olim ekanligini inkor etmoqda.Yozuvchi inson avvalo,insoniy xislarga ega bo‘lishi eng muhim omil ekanligini ta’kidlaydi.Inson xo‘-o‘-o‘p olim emas, balki odam bo‘lishi lozim.Bu matnda ham pragmalingsvistikaning fonetik ko‘rinishi matnning ta’sirli chiqishi uchun bundan tashqari mazmunini ochib berish uchun xizmat qilgan.

“Tiriklar va o‘liklar” matnidagi unli tovushning ikkilanishi natijasida quyidagi fonetik pragmalingsvistika hodisasini kuzatish mumkin:

Vaqtivaqti bilan qabristonga borasiz.Ajdodlaringiz boshida turib ,o‘tganlar ruhini xotirlaysiz...Keyin...o‘z yumushingiz bilan ketasiz.

Shoshilmang.Dunyo ishi bitganmas...Iloji bo'lsa ,qabristonni osoyishta aylaning.Shunda...g'alati holat ro'y beradi.Marhumlar sizga **ko'-o'-o'p** narsalarni aytadi...

Ishoning,marhumlar tiriklardan ko'ra teranroq fikrlaydi...

Ushbu matndagi **ko'-o'-o'p** so'zi orqali yozuvchi juda ko'p narsaga, ya'ni son-sanoqsiz,hisobsiz narsaga ishora qilmoqda.Ushbu **ko'-o'-o'p** leksemasi orqali marhumlar bu dunyoning o'tkinchi ekanligi hayot juda tez o'tib ketishi,shoh ham gado ham barobar bo'lishi,hayotning foniy ekanligi ,bu dunyo ishlari uchun haddan tashqari inson ko'p aziyat chekmasligi kerakligi aytilmoqda. Yozuvchi shuncha jumlaning fonetik pragmaligvistika orqali **ko'-o'-o'p** so'zini ichiga joylay olgan.Bu bilan matnning yanada ta'sir kuchi ormoqda.Matnning mazmun –mohiyatini kitobxon fonetik pragmaligvistika orqali xis etadi va mushohada qila oladi.

Bundan ko'rinib turibdiki,fonetik pragmaligvistikaning barcha ko'rinishi har qanday matnning mazmunining eng kuliminatsion o'rinlarida ham boshqa o'rinlarida ham keladi. Pargmaligvistika yozuvchining badiiy mahoratini chuqur ochib berishi uchun yozuvchining kitobxonga nima demoqchi ekanligini aks ettirishda samarali xissa qo'shadi. Pragmaligvistika poetik tilshunoslikning kitobxonga,kitobxonning shuuriga singib kitobxonning tahlil qilishi uchun xizmatlari katta.

Xulosa qilib aytganda fonetik pragmaligvistika badiiy adabiyotning,uslubiy bo'yoqdorlikning bir bo'lagi bo'lib xizmat qiladi.Fonetik pragmaligvistika orqali yozuvchi va shoirlar o'z ichki tuyg'ulari,qarashlarini ifoda etish uchun unumli foydalanadilar .

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.M.Hakimov.Pragmaligvistika asoslari
- 2.O'.Hoshimov . Daftar hoshiyasidagi bitiklar Toshkent 2018 30-bet
- 3.Nurmonov A.Tanlangan asarlar I jild Akademnashr 2012 yil
- 4.Nurmonov A.Tanlangan asarlar III jild Akademnashr 2012 yil
- 5.Nurmonov A. Tanlangan asarlar III jild Akademnashr 2012 yil
- 6.O'.Hoshimov . Daftar hoshiyasidagi bitiklar Toshkent 2018yil 76-bet
- 7.O'.Hoshimov . Daftar hoshiyasidagi bitiklar Toshkent 2018 yil 112-bet